

**NEGA BOLALAR YOSHLIKDANOQ IKKI TILDA RAVON
SO‘ZLASHA OLMAYDI?**

Farangiz Rayimqulova

ToshDO'TAU talabasi

rayimqulovafarangiz435@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola oilalarda ko‘p tillilikni rivojlantirish, ona tillarni farzandlarga o‘rgatish va umumiy tilni saqlash bo‘yicha tavsiyalar beradi. Ushbu maqolada bolalarning yoshlik davridan boshlab ikki tilda ravon so‘zlasha olmasligining asosiy sabablari tahlil qilinadi. Unda til muhitining yetarli emasligi, ota-onalar va atrofdagilarning tilga bo‘lgan munosabati, bolada til o‘rganishga motivatsiyaning shakllanmasligi hamda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kognitiv rivojlanish jarayoni, til aralashuvi va ijtimoiy-psixologik omillarning ikki tillilikka ta’siri muhokama qilinadi. Maqola natijasida bolalarda erta yoshdan boshlab ikki tilli muhitni to‘g‘ri tashkil etish, tizimli va tabiiy muloqot orqali til o‘rgatish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *bilingual, umumiy til, strategiya, muloqot, so‘z.*

Annotation: *The article provides recommendations on developing multilingualism in families, teaching mother tongues to children, and preserving a common language. It analyzes the main reasons why children are unable to speak two languages fluently from an early age. The article highlights the insufficiency of the language environment, the attitudes of parents and surrounding people toward language use, the lack of motivation in children to learn languages, and the importance of pedagogical approaches. In addition, the impact of cognitive development processes, language interference, and socio-psychological factors on bilingualism is discussed. The article concludes that it is essential to properly organize a bilingual environment from an early age and to teach languages through systematic and natural communication.*

Keywords; *bilingualism, common language, strategy, communication, word.*

Bir bola yoshlikdanoq bir nechta tilda soʻzlasha oladimi? Koʻpchilik buni mumkin emas deb oʻylaydi, lekin ilmiy tadqiqotlar biz bilmagan va aqlimizga sigʻdira olmaydigan haqiqatlarni ochib bermoqda. Baʼzi ota-onalar farzandlari tengdoshlariga qaraganda tezroq rivojlanishini va bir nechta tilni yoshlikdanoq mukammal oʻrganib olishini istaydi. Oxir-oqibat **esa “farzandim ikki tilde ravon gapira olmas ekan”** deb tushkunlikka tushishadi.

Keling, ikki tilda ravon gapiruvchi inson haqida qisqacha maʼlumotga ega boʻlaylik. Lugʻatda bilingual shaxs degan atama mavjud boʻlib, u bir vaqtning oʻzida ikki tilni biladigan va ishlata oladigan shaxsni ifodalaydi. Bolalarda bilingvizm esa ikki tilni oʻrganish va qoʻllash jarayoni boʻlib, bolaning nutq, fikrlash va ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirishga katta taʼsir koʻrsatadi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bolalar yoshligidan ikki tilga duch kelganida, ular til qobiliyatlarini bir-biriga aralashmasdan rivojlantirishga oʻrganadilar. Ikki tilni oʻrganish bolalarning kognitiv rivojlanishini ragʻbatlantiradi, nutq boyligini kengaytiradi va grammatikani tezroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, bilingval bolalar turli madaniyatlarni tushunish va ularga moslashish qobiliyatiga ega boʻlib, turli guruhlar bilan samarali muloqot qilishi va ijtimoiy muhitga tezroq moslashishi mumkin.

Jamiyatimizda bilingval bolalar tengdoshlariga qaraganda kech gapirishni boshlaydi yoki tengdoshlari kabi bir tilda mukammal muloqot qila olmaydi degan tushuncha mavjud. Xoʻsh, bu aslida ham toʻgʻrimi? Bir qarashda bilingval bolalar tengdoshlariga qaraganda kam soʻz bazasiga ega boʻlib koʻrinishi mumkin, lekin aslida ular biladigan ikki tilning umumiy lugʻat sonini hisoblasak, koʻrsatkich tengdoshlarinikidan xech ham qolishmaydi.

Nutq bilan bogʻliq muammolarga keladigan boʻlsak, bunday muammolar yosh bolalarning aksariyat qismida kuzatilishi mumkin. Lekin bu bolaning bilingvalligiga bogʻliq emas.

Yana bir bilingval bo'lishga nisbatan keng tarqalgan noto'g'ri fikr – bu bolaning ikki tilni aralashtirib gapirishi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilingval bolalar gapirish jarayonida ba'zan ikki tilni aralashtirib ishlatishi mumkin. Lekin bu gaplar har doim ikki tildan birining grammatik qolipiga mos keladi.

Masalan, bola **I like cha [cha – xitoycha “choy”]** deb xitoy va ingliz tillarini aralashtirib gapirayotgan bo'lsa, ushbu gap tuzilishi ingliz tili grammatikasiga to'g'ri keladi. Ya'ni bolaning ikki tilni aralashtirib gapirishi – bu uning ijodkorlik qobiliyatining boshqa bolalarnikiga qaraganda yuqoriroq ekanligini namoyon etadi xolos.

Yuqorida berilgan fikrlarni xulosalaydigan bo'lsak, ommaviy noto'g'ri stereotiplar asosida farzandimizni bilingval bo'lishdan qaytarish noto'g'ri hisoblanadi. Endi keling, bolalarni bir nechta tillarni oson va tez o'rganishiga yordam beruvchi strategiyalarni ko'rib chiqamiz.

Agar siz farzandingizni o'z tilingizda so'zlasha oladigan qilib tarbiyalamoqchi bo'lsangiz, keyingi qadam – bu maqsadga erishish uchun reja tuzishdir. Hayotning har qanday sohasida bo'lgani kabi, maqsadga erishish uchun avvalo uni aniq belgilash zarur. Farzandingiz qaysi tillarda so'zlashi kerak va qaysi darajada erkinlikka ega bo'lishini xohlaysiz?

Maqsadlar belgilanganidan so'ng, ularni amalga oshirish uchun mavjud resurslarni hisobga oling: oilada kim qaysi tilni biladi? Har bir tilni biluvchi shaxs farzand bilan qancha vaqt o'tkazishi mumkin? Ushbu savollarga javoblar oilaviy til strategiyasini tanlashda eng to'g'ri yo'lni belgilashga yordam beradi.

Sizga yordam berishi mumkin bo'lgan birinchi strategiya – Bir inson bir tilda **[One Person, One Language]** strategiyasi. Bunda ikki ota-onaning har biri o'zlari yaxshi bilgan tilni tanlab, bola bilan aynan shu tilda doimiy muloqot olib borishi kerak. Shunda bola ikki tilni ham tabiiy ravishda, grammatik qoidalarsiz, oson o'rganadi.

Ikkinchi strategiya – **Vaqt va joy strategiyasi**. Bunda ota-ona uyda ishlatadigan tilini va ko'chada ishlatadigan tilini oldindan tanlab oladi. Belgilangan joyda belgilangan tilda so'zlashish kerak. Bu jarayonda bola avtomatik ravishda bir

tildan ikkinchi tilga o'tishni shakllantirib oladi.

Quyida bilingvallik haqida beriladigan eng ko'p uchraydigan savollar va ularga berilgan ilmiy javoblar bilan tanishamiz.

Savol:

Mening juftim va men turli ona tillarda so'zlashamiz, va biz birga ko'pchilik gaplashadigan tilni ishlatamiz, chunki shunday tanishgan edik. Biz bir-birimizning tillarimizni yaxshi tushunamiz. Farzandlarimiz ikkimizning tillarimizni, shuningdek, ko'pchilik gaplashadigan tilni o'rganishini xohlaymiz. Ko'pchilik gaplashadigan tilni oilaviy umumiy til sifatida saqlab qolishimiz kerakmi? Agar yo'q bo'lsa, oilamiz qanday muloqot qilishi mumkin?

Javob:

Siz va juftingiz bir-biringizning tillarini tushunishingiz oilangiz uchun foydalidir. Umumiy til sifatida ko'pchilik gaplashadigan tilni saqlashingiz mumkin (masalan, birga ovqatlanayotganda yoki oilaviy vaqtda). Farzandlar bilan esa alohida ona tillaringizda gaplashishingiz tavsiya etiladi. Shu tarzda bola har ikki tilni tabiiy ravishda o'rganadi, va oilaviy umumiy til ham saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova, N. M. (2025). Ko'p tillilik (multilingualism) va madaniyatlararo kommunikatsiya: zamonaviy tendensiyalar. PEDAGOGS, (maqolaning onlayn nashri). (scientific-jl.com)
2. Bouko, C., Carton, J., Limacher-Riebold, U., O'Malley, M.-P., & Rosenback, R. (2020). How to raise a bilingual child: Practical guide for parents with ready-to-use activities. PEaCH Project. (bilingualfamily.eu)
3. Muhamedova, S., & Shirinova, Y. (2024). Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 3–6. (aphil.tsuull.uz)
4. Rashidova, S. I. (2025). Oila tarbiyasiga oid konseptlarning lingvokulturologik tahlili ingliz va o'zbek tillari misolida. Obshchestvennye nauki v sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya, 4(12), 49–52. (in-academy.uz)